


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)


2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 646,7 mln. AQSh dollariga etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,0 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 399,6 mln. AQSh dollarga va import hajmi 247,1 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosi 152,5 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)




Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 39,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 94,1 % ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 60,6 % bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,9 % ni tashkil qilgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 49,8 % ni, boshqa davlatlar 50,2 % ni va import hajmida MDH davlatlari 22,6 % ni, boshqa davlatlar 77,4 % ni tashkil qildi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning noyabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, oktabr oyiga nisbatan 4,9 mln. AQSh dollarga ko'p eksport qilindi va 35,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 17,7 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa oktabr oyiga nisbatan 1,4 mln. AQSh dollariga ko'proqdir.

2019-yil yanvar-noyabrda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSh dollari)



2019-yil yanvar-noyabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko'rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Rossiya	166,8	133,3	33,5	25,8	95,0
Xitoy	160,5	97,8	62,7	24,8	106,5
Turkiya	76,3	56,8	19,5	11,8	72,1
Qozog'iston	69,5	56,1	13,4	10,8	109,1
Koreya Respublikasi	59,0	18,0	41,0	9,1	137,8
Latviya	22,8	16,7	6,1	3,5	80,4
Vietnam	14,8	0,1	14,7	2,3	2,2 b.
Buyuk Britaniya	7,6	-	7,6	1,2	3,3 b.
Ukraina	5,3	2,1	3,2	0,8	24,7
Eron	5,1	0,2	4,9	0,8	169,2
Qirg'iziston	4,6	3,0	1,6	0,7	118,9
Germaniya	4,3	0,7	3,6	0,7	38,5
Turkmaniston	4,0	0,5	3,5	0,6	2,1 b.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 39,4 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 94,1 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-noyabr oylarida 59,4 % ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 60,6 % ga etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln. AQSh dollari)


Davlat nomi	2017-yil yanvar-noyabr	2018-yil yanvar-noyabr	2019-yil yanvar-noyabr
Rossiya	134,0	175,6	166,8
eksport	97,0	124,0	133,3
Import	37,0	51,6	33,5
saldo	60,0	72,4	99,8
Xitoy	164,4	150,7	160,5
eksport	106,4	100,7	97,8
import	58,0	50,0	62,7
saldo	48,4	50,7	35,1
Turkiya	119,5	105,7	76,3
eksport	111,0	90,2	56,8
import	8,5	15,5	19,5
saldo	102,5	74,7	37,3
Qozog'iston	42,5	63,7	69,5
eksport	40,1	51,6	56,1
import	2,4	12,1	13,4
saldo	37,7	39,5	42,7
Koreya Respublikasi	28,2	42,8	59,0
eksport	0,8	7,9	18,0
import	27,4	34,9	41,0
saldo	-26,6	-27,0	-23,0
Latviya	38,7	28,4	22,8
eksport	38,2	23,3	16,7
import	0,5	5,1	6,1
saldo	37,7	18,2	10,6
Vietnam	0,6	6,8	14,8
eksport	0,5	1,0	0,1

Davlat nomi	2017-yil yanvar-noyabr	2018-yil yanvar-noyabr	2019-yil yanvar-noyabr
import	0,1	5,8	14,7
saldo	0,4	-5,0	-14,6
Buyuk Britaniya	0,8	2,3	7,6
eksport	-	-	-
import	0,8	2,3	7,6
saldo	-0,8	-2,3	-7,6
Ukraina	9,1	21,5	5,3
eksport	3,4	3,2	2,1
import	5,7	18,3	3,2
saldo	-2,3	-15,1	-1,1
Eron	3,1	3,0	5,1
eksport	2,6	0,3	0,2
import	0,5	2,7	4,9
saldo	2,1	-2,4	-4,7
Qirg'iziston	5,4	3,9	4,6
eksport	5,4	3,8	3,0
import	-	0,1	1,6
saldo	5,4	3,7	1,4
Germaniya	3,0	11,1	4,3
eksport	0,4	0,5	0,7
import	2,6	10,6	3,6
saldo	-2,2	-10,1	-2,9
Turkmaniston	0,2	1,9	4,0
eksport	0,2	0,3	0,5
import	-	1,6	3,5
saldo	0,2	-1,3	-3,0


EKSPORT

2019-yil yanvar-noyabr oylarida eksport hajmi 399,6 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,4 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (78,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,9 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (%)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	399,6	94,8	100	198,9	107,6	100	200,7	84,8	100
Paxta tolasi	3,5	-	0,9	-	-	-	3,5	-	1,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	35,4	125,4	8,9	10,4	191,9	5,2	25,0	109,7	12,5
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	312,0	84,2	78,1	178,3	102,0	89,6	133,7	68,2	66,6
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	2,7	32,7	0,7	0,9	71,0	0,5	1,8	25,5	0,9
Mashina va asbob-uskunalar	4,3	34,6 b.	1,1	0,6	5,2 b.	0,3	3,7	297,4 b.	1,8
Xizmatlar	2,4	107,8	0,6	1,6	103,4	0,8	0,8	117,9	0,4
Boshqalar	39,3	3,3 b.	9,7	7,1	4,1 b.	3,6	32,2	3,2 b.	16,0

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-noyabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati may oyida kuzatilgan.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning noyabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar oktabr oyiga nisbatan 36,6 % ga ko'paygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 2,4 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 % ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,8 % ga o'sganligi kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (37,8 %), safarlar (33,4 %) va transport xizmatlari (27,6 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)



Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019-yilning noyabr oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, oktabr oyiga nisbatan 5,0 mln. AQSh dollariga ko'p eksport qilindi va 35,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,2 mln. AQSh dollariga etgan.

2019-yil yanvar-noyabrda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)





■ Tovarlar ■ Xizmatlar

Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar-noyabr)

2018-yil

2019-yil



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiya hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 72,1 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiyaga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y. yanvar- noyabr	2019 y. yanvar- noyabr	2018 y. yanvar- noyabr	2019 y. yanvar- noyabr	2018 y. yanvar- noyabr	2019 y. yanvar- noyabr
Rossiya	124,0	133,3	29,4	33,4	1	1
Xitoy	100,7	97,8	23,9	24,5	2	2
Turkiya	90,2	56,8	21,4	14,2	3	3
Qozog'iston	51,6	56,1	12,2	14,0	4	4
Koreya Respublikasi	7,9	18,0	1,9	4,5	6	5
Latviya	23,3	16,7	5,5	4,2	5	6
Qirg'iziston	3,8	3,0	0,9	0,8	7	7
Iroq	3,7	2,8	0,9	0,7	8	8
Tojikiston	1,6	2,7	0,4	0,7	11	9
Ukraina	3,2	2,1	0,8	0,5	10	10
Estoniya	3,5	1,3	0,8	0,3	9	11

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida jami 22 662,3 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 9 983,5 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 176,9 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida 16 115,3 tonna sabzavotlar 4 986,6 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 5 529,5 tonna meva va rezavorlar 3 422,3 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 743,6 tonnaga ko'paygan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida uzum va qovun-tarvuz eksport hajmi 1 313,2 ming AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 63,1 % ga o'sgan).

Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


Davlat nomi	2018-yil yanvar-noyabr			2019-yil yanvar-noyabr		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %
Qozog'iston	20 762,0	4 033,0	71,5	18 911,7	7 404,1	74,2
Rossiya	1 744,4	1 139,5	20,2	4 261,5	1 589,7	15,9
Qirg'iziston	-	-	-	317,4	364,6	3,7
Bolgariya	-	-	-	66,7	310,6	3,1
Ukraina	-	-	-	21,5	101,1	1,0
Turkiya	72,0	46,1	0,8	502,6	66,0	0,7
Fransiya	-	-	-	17,5	48,6	0,5
Ruminiya	-	-	-	252,0	36,3	0,4
Turkmaniston	10,0	7,3	0,1	275,9	32,5	0,3
Xitoy	-	-	-	25,5	24,7	0,2
Polsha	-	-	-	10,1	5,2	0,1

2019-yil yanvar-noyabrda meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

2018-yil




2019-yil




IMPORT

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 247,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 % ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (55,3 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (11,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,7 %) va xizmatlar (4,2 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar importi ulushi, (%)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %
Import	247,1	100,7	100	55,9	65,1	100	191,2	119,9	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	14,2	134,4	5,7	13,8	135,4	24,7	0,4	105,8	0,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	28,8	81,9	11,7	2,7	66,0	4,8	26,1	84,0	12,9
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	9,3	171,6	3,8	3,0	2,4 b.	5,5	6,3	151,5	3,1
Qora va rangli metallar	2,2	38,0	0,9	0,5	18,1	0,9	1,7	55,3	0,9
Mashina va asbob-uskunalar	136,7	115,1	55,3	13,3	56,8	23,8	123,4	129,4	64,8
Xizmatlar	10,3	77,1	4,2	1,6	35,2	2,9	8,7	98,6	4,9
Boshqalar	45,6	80,9	18,4	21,0	52,8	37,4	24,6	147,3	13,2

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-noyabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari sentabr oyida kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning noyabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar oktabr oyiga nisbatan 27,1 % ga ko'paygan.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y. yanvar-noyabr	2019 y. yanvar-noyabr	2018 y. yanvar-noyabr	2019 y. yanvar-noyabr	2018 y. yanvar-noyabr	2019 y. yanvar-noyabr
Xitoy	50,0	62,7	20,4	25,4	2	1
Koreya Respublikasi	34,9	41,0	14,2	16,6	3	2
Rossiya	51,6	33,5	21,0	13,6	1	3
Turkiya	15,5	19,5	6,3	7,9	4	4
Vietnam	5,8	14,7	2,4	5,9	7	5
Qozog'iston	12,1	13,4	5,0	5,4	5	6

Buyuk Britaniya	2,3	7,6	0,9	3,1	10	7
Latviya	5,1	6,1	2,1	2,5	8	8
Eron	2,7	4,9	1,1	2,0	9	9
Germaniya	10,6	3,6	4,3	1,4	6	10
Turkmaniston	1,6	3,5	0,7	1,4	11	11
Litva	1,2	3,3	0,5	1,3	12	12


Xizmatlar importi tarkibi, (%)



Xizmatlar importi hajmi 10,3 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 77,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (81,2 %) hamda texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (10,0 %)dan iborat bo'ldi.

2019-yil yanvar-noyabrda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi


(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar noyabr oyida, oktabr oyiga nisbatan 1,4 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 3,3 mln. AQSh dollarga ko'p va xizmatlar 1,9 mln. AQSh dollarga kam import qilingan.

Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-noyabr)

2018-yil



2019-yil



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida respublikaga 45 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston va Vietnam hamkor davlatlaridan jami import hajmi 184,8 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 74,8 % ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	VIETNAM	TURKIYA	ROSSIYA	KOREYA RESPUBLIKASI
mln. AQSH doll.	57,9	14,5	12,7	8,7	6,8
O'tgan yilga nisbatan, %	134,4	2,5 b.	2,3 b.	163,5	149,8
Ulushi, %	42,4	10,6	9,3	6,4	5,0

Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	XITOIY	QATAR	ROSSIYA	LATVIYA
mln. AQSH doll.	14,1	1,9	1,9	1,7	1,6
O'tgan yilga nisbatan, %	71,3	91,6	-	74,1	4,3 b.
Ulushi, %	48,8	6,6	6,6	6,0	5,7

Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	UKRAINA	TURKMANISTON
mIn. AQSH doll.	9,4	3,3	0,5	0,4
O'tgan yilga nisbatan, %	134,3	4,6 b.	28,3	-
Ulushi, %	66,7	23,7	3,5	3,1

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-82-06**